



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati

PRESS-RELIZ

2024-yil 22-fevral

“NKMK” AJda ishlab chiqarishni raqamlashtirish, faoliyatga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, erishilgan natijalar va istiqboldagi rejalarga bag‘ishlangan matbuot anjumani to‘g‘risida

2024-yil 22-fevral kuni “NKMK” AJning matbuot anjumanlarini o‘tkazish zalida kombinatda ishlab chiqarishni raqamlashtirish, faoliyatga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, erishilgan natijalar va istiqboldagi rejalarga yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun matbuot anjumani o‘tkazildi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha tarmoq va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJda ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalar, zamonaviy axborot tizimlari hamda dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda kombinat transformatsiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri korxonaning ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga raqamlashtirishni keng joriy etishdir. Bu borada “Boston Consulting Group” (BSG) xalqaro konsalting kompaniyasi vakillarini jalb qilgan holda **12 ta yo‘nalishdan iborat “NKMK” AJning raqamli transformatsiya dasturi** amalga oshirilmoqda.

Oxirgi uch yilda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi mutaxassislari tomonidan **200 ga yaqin ishlab chiqarish va boshqaruv vazifalarini bajaradigan 20 dan ortiq axborot tizimlari** ishlab chiqildi. Raqamli transformatsiya dasturi doirasida 2021-2023-yillarda korxonaning ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha **40 dan ortiq chora-tadbirlar** amalga oshirildi.

Jumladan, 2023-yilda Markaziy kon boshqarmasida **ishlab chiqarishning raqamlashtirilgan yagona boshqaruv markazi** ishga tushirildi. 2-gidrometallurgiya zavodida joylashgan mazkur markazning asosiy vazifasi geologik-qidiruv ishlari, ma'danni qazib olish, tashish va gidrometallurgiya zavodlarida qayta ishlash jarayonlarini to'liq kuzatib borish, tahlil qilish va boshqarishdan iboratdir.

Bu borada olib borilgan ishlar natijasida "NKMK" AJ o'tgan yilda Toshkent shahrida raqamli texnologiyalar sohasida o'tkazilgan Markaziy Osiyodagi eng katta tadbirlardan biri – **"ICTWeek Uzbekistan - 2023" AKT haftaligida** 95,2 ball bilan birinchi o'ringa muvofiq ko'rib, **"Raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha eng yaxshi xo'jalik organi"** sifatida taqdirlandi.

Joriy yilda raqamlashtirish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha "BCG" kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha **9 ta yirik loyiha** amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarga kombinat tomonidan **253,6 mlrd so'm** yo'naltiriladi. Ko'plab axborot tizimlari takomillashtiriladi (**korxonalar resurslarini boshqarish (ERP), transport boshqaruvi**), yangi 4 ta axborot tizimi (**xodimlarni boshqarish HCM, xaridlarni boshqarishni biznes-tahlil tizimi BI, loyihalarni boshqarish tizimi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasini raqamlashtirish (ESG)**) joriy etiladi.

Tog'-kon sanoatida faoliyat yuritib kelayotgan IT sohasidagi **405 nafar xodimning** bilim va malakalari oshiriladi, **40 nafar mutaxassis** xalqaro ta'lim platformalari orqali o'qitiladi.

Raqamlashtirish borasida amalga oshiriladigan loyihalar va tashkiliy texnik tadbirlar **tog' jinslarini qazib olish hajmini 7,4 foizga, ma'danlarni qayta ishlash hajmini 3,1 foizga oshirish** imkonini beradi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, operatsion samaradorlikni oshirish hisobiga, 2024-yil **152 mlrd so'm** va 2025-yildan boshlab yiliga **625 mlrd so'mlik foyda** ko'riladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilishi kombinatda ish sifati va samaradorligini oshirish, faoliyatga raqamlashtirish tizimini joriy etish orqali inson omilini kamaytirish, tannarxni pasaytirish, ishlab chiqarishda to'xtalishlar oldini olishni ta'minlamoqda.

Tadbirda OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

Murojaat uchun ma’lumotlar:

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: **+99879 227-75-88, 227-74-73**

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

www.t.me/ngmkofficial

www.fb.com/nkmkofficial

www.instagram.com/nkmk.official

www.youtube.com/nkmkofficial

www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/

www.twitter.com/jsc_nmmc

Ma’lumot uchun:

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (“NKMK” AJ) jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to’rttaligiga kiradi. Kombinat yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan to tayyor mahsulot olishgacha bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari to’liq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteridir. Kombinat zamonaviy kon-transport va texnologik uskunarlar, ilg’or texnologiyalar bilan jihozlantirilgan konlar, zavodlarga ega zamonaviy korxonadir. “NKMK” AJning “999,9” soflikdagi oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar bo’yicha birjarlarida O’zbekistonning brendiga aylandi.